



Tadqiqot.uz

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

**SOHA LINGVISTIKASI: TILSHUNOSLIK
VA TIBBIYOT INTEGRATSIYASINING
MUAMMOLARI, YECHIMLARI HAMDA
ISTIQBOLLARI**

**10-NOYABR
2021**

BUXORO, UZBEKISTAN

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

SOHA LINGVISTIKASI:
TILSHUNOSLIK VA TIBBIYOT
INTEGRATSIYASINING
MUAMMOLARI, YECHIMLARI
HAMDA ISTIQBOLLARI
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
materiallari

Buxoro, 10-noyabr, 2021-yil

© Tadqiqot.uz

**MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIAL
EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

BUKHARA STATE UNIVERSITY

**LINGUISTICS OF DIFFERENT
FIELDS:
PROBLEMS, SOLUTIONS AND
PROSPECTS OF LINGUISTICS
AND MEDICAL INTEGRATION**

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL
CONFERENCE**

Bukhara, November 10, 2021

**МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО И СРЕДНЕГО
СПЕЦИАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ
УЗБЕКИСТАН**

БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

**ОТРАСЛЕВАЯ ЛИНГВИСТИКА:
ЗАДАЧИ, РЕШЕНИЯ И
ПЕРСПЕКТИВЫ
ЛИНГВИСТИКИ И
МЕДИЦИНСКОЙ ИНТЕГРАЦИИ**

**МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ
КОНФЕРЕНЦИЯ**

Бухара, 10 ноября 2021 г.

© Tadqiqot.uz

“Soha lingvistikasi: tilshunoslik va tibbiyot integratsiyasining muammolari, yechimlari hamda istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.–Buxoro: Tadqiqot.uz, 2021.

Buxoro davlat universiteti O`zbekiston Respublikasi oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi, O`zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vazirligi, O`zbekiston Respublikasi sog`liqni saqlash vazirligi, O`zbekiston Respublikasi tadqiqot.uz. markazi, Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti bilan hamkorlikda “Soha lingvistikasi: tilshunoslik va tibbiyot integratsiyasining muammolari, yechimlari hamda istiqbollari” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o`tkazdi.

O`zbek, rus, ingliz tillaridagi mazkur konferensiya materiallarida tilshunoslikda til, shaxs, jamiyat munosabatlari tadqiqi muammolari va innovatsion g`oyalar tizimini shakllantirish istiqbollari; o`zbek tili tibbiyot leksikografiyasi va terminologiyasini rivojlantirish ijtimoiy zaruriyat; tibbiyot ta`limida lingvokulturologiya va psixolingvistikaning ahamiyati hamda dolzarbligi; tibbiy birliklarning lingvopoetik tadqiqi; amaliy filologiyani rivojlantirish kabi mavzular doirasida mulohaza yuritilgan.

Mas`ul muharrir

**filologiya fanlari doktori,
professor Abuzalova M.Q.**

Taqrizchilar

**filologiya fanlari nomzodi,
dotsent Nazarova S.A.**

**filologiya fanlari nomzodi,
dotsent G`aybullayeva N.I.**

**tibbiyot fanlari doktori (PhD),
dotsent Ixtiyarova G.A.**

**To`plovchi va nashrga
tayyorlovchi**

**pedagogika fanlari nomzodi,
professor Yuldasheva D.N.**

Mazkur to`plamga kiritilgan maqolalar va tezislarning mazmuni, statistik ma`lumotlar hamda bildirilgan fikr hamda mulohazalarga mualliflarning o`zlari mas`uldirlar.

© Buxoro, Tadqiqot.uz, 2021

1-SHO'BA.

TILSHUNOSLIKDA TIL, SHAXS, JAMIYAT MUNOSABATLARI TADQIQI MUAMMOLARI VA INNOVATSION G'OYALAR TIZIMINI SHAKLLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Rus va o'zbek tillarida so'zlarning o'zaro tobe bog'lanishi: boshqaruv kategoriyasi

Ahmedov Bahodir Yaxshimurodovich*
10.5281/zenodo.5685052

Annotatsiya. Maqolada rus va o'zbek tillarida boshqaruv kategoriyasini shakllantirishda kelishik qo'shimchalarining ishlatilishi, hokim va tobeso'zlarning o'zaro tobe bog'lanish xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: *boshqaruv, bosh va tobe so'z, kategoriya, flektiv til, ko'makchi, predlog, qo'shimcha*

So'z birikmalarining yasash usuli xilma-xil bo'lib, turli tillarda jiddiy farqlanadi. Har xil qurilishga mansub tillardagi so'zlarning grammatik bog'lanishini qiyosiy o'rganish esa ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga molik. Binobarin, "so'z birikuv qoidalarida va turli tip hamda xildagi so'z birikmalarining paydo bo'lish qonuniyatlarida tilning milliy xususiyati yaqqol namoyon bo'ladi" [3,11].

So'zlarning tobe aloqa turlari ichida boshqaruv aloqasi ancha murakkab hisoblanadi. Rus va o'zbek tilida boshqaruv deganda, odatda, shunday tobe aloqa tushuniladiki, unda tobe so'z (ot, olmosh) hokim so'z talab qilgan kelishikda bo'ladi yoki ko'makchi bilan birga keladi [5.7].

Tobe bog'lanishning bir turi bo'lgan boshqaruv aloqasi o'zbek tilshunosligida sintaksisga doir ayrim ishlarda ma'lum darajada o'rganilgan [1.2.5]. Ularda tobe so'zning kelishik shakllari yoki ko'makchilar yordamida bosh so'z (fe'l, ot, sifat, son, undov va modal so'zlar) bilan sintaktik aloqaga kirishi va so'z birikmalari komponentlari o'rtasida hosil bo'ladigan sintaktik munosabatlar tahlil qilinadi.

Mazkur maqolada rus va o'zbek tillarida boshqaruv aloqasiga ta'sir etuvchi asoslarni chog'ishtirib o'rganish natijasida so'zlarni bir-biriga bog'lovchi sintaktik aloqa vositalari, birikma komponentlari qurilishi va semantikasi, ular o'rtasidagi sintaktik munosabatlardagi o'xshashlik hamda tafovutlarni aniqlashga harakat qilamiz.

Har bir tilda boshqaruv munosabati bilan bog'lanib kelgan so'zlar o'ziga xos sintaktik aloqa vositalariga ega. Rus tilida so'zlarning sintaktik aloqalari tobe so'zning shakli, yordamchi so'zlar va so'z tarkibi ko'magida ifodalanadi.

Masalan: *преданность Родине, держать рукой, дружба между народами.*

* Buxoro viloyat XTXQTMOHM dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

O‘zbek tilida so‘zlar kelishik qo‘shimchalari, yordamchi so‘zlar, so‘z tartibi vositasida sintaktik aloqaga kirishadi. Masalan, *Vatanga sadoqat, qo‘l bilan ushlamoq, xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik*.

Ko‘rib o‘tilganidek, boshqaruv komponentlari aro sintaktik aloqa vositalari rus va o‘zbek tillarida o‘zaro mos tushadi. Lekin mazkur tillarning Grammatik qurilishini tadqiq qilish natijasida shu narsa oydinlashadiki, bu shakily o‘xshashliklar ortida tub farqlar ham yotadi.

Flektiv til bo‘lmish ruschada tobe so‘zning shakli, uning padejlardagi o‘zgarishlari so‘zlarning birikma hosil qilishida katta rol o‘ynaydi. Tobe so‘z padej shaklining o‘zgarishiga esa grammatik rod bilan bog‘liq uch xil turlanish sabab bo‘ladi. Bundan tashqari, bir padejning o‘zida kelgan otlar, negizning yumshoq, qattiqligiga qarab, turlicha qo‘shimcha oladi, мужской va средний roddagi otlarning винительный padejdagi qo‘shimchalari иминительный hamda родительный padejlarining qo‘shimchalari bilan predmetning jonli va jonsizligiga ko‘ra mos tushadi.

Rus tilidan farqli ravishda o‘zbek tilida tobe so‘zning kelishik qo‘shimchalari qat’iy bir tizim bo‘yicha o‘zgaradi: har bir kelishik muayyan qo‘shimcha oladi. Taqqoslang:

Помочь другу- do‘stga yordam bermoq;

Помочь судье- sudyaga yordam bermoq;

Помочь обществу- jamiyatga yordam bermoq;

Помочь герою- qahramonga yordam bermoq;

Помочь студентке- talaba qizga yordam bermoq.


Har ikkala tilda boshqaruv ikki turga bo‘linadi: vositasiz (ruschada - predlogsiz; ozbekchada - ko‘makchisiz) va vositali (ruschada - predlogli, o‘zbekchada - ko‘makchili).

Predloglar bilan birga tobe so‘zlarning shakl o‘zgarishi ham ishtirok etadigan rus tilidagi “vositali” boshqaruvdan farqli ravishda, o‘zbek tilidagi ko‘makchi-otlar boshqaruvida tobe so‘zlarning kelishik shakli qatnashmaydi, o‘z leksik ma’nosini saqlagan holda, ko‘makchi boshqaruvchi so‘z talab qilgan kelishik qo‘shimchasini oladi (*deraza oldiga kelmoq, stol tagiga qo‘ymoqva h.k.*).

Grammatik boshqaruv komponentlarining joylashish tartibi bo‘yicha ham bu ikki til bir-biriga o‘xshamaydi. Boshqaruv aloqasi bilan yuzaga keladigan rus tilidagi so‘z birikmalarida odatda tobe so‘z hokim so‘zdan keyin o‘rin oladi.

O‘zbek tilida esa bunga teskari tartibda, birikmaning birinchi komponenti tobe, ikkinchisi bosh so‘z tarzida joylashadi.

Taqqoslang:



Ma’lumki, rus tilida boshqaruv aloqasiga uch asos: 1) bosh so‘zning leksik-semantik xususiyatlari; 2) uning so‘z yasovchi elementlari; 3) tobe so‘zning leksik-grammatik tabiati va uning gapdagi vazifasi sabab bo‘ladi. O‘zakning umumiyli

va soʻz yasalihi bilan bogʻliq har xil soʻz turkumlari, koʻp hollarda, boshqaruvning ayni shaklini saqlab qoladi:

*работать над рукописью – работа над рукописью,
работать со словарём – работа со словарём,
заведовать кафедрой – заведующий кафедрой,
управлять машиной – управляющий отделением.*

Lekin soʻz yasalihi jihatidan bir-biri bilan oʻzaro aloqador soʻzlar turli padejlarni boshqarishi ham mumkin. Bu hodisa tobe aloqaga kiruvchi soʻzlarga grammatik taʻsir bilan izohlanadi.

Qiyoslang:

*Защищать Родину – защита Родины
интересоваться наукой – интерес к науке,
наградить героя – награда герою.*

Oʻzbek tilida juda kam hollarda boshqaruvchi soʻzning ot yoki otdan yasalgan feʼl ekanligiga qarab, tobe soʻz turli xil kelishik qoʻshimchalarini oladi. Masalan,

*Космонавтга мукот – космонафтни мукотламоқ,
Dushmanga nafrat – dushmandan nafratlanmoқ.*

Koʻp hollarda bir oʻzakli boshqaruvchi soʻzning u yoki bu soʻz turkumiga mansubligidan qatʼl nazar, boshqarilayotgan soʻzshakli oʻzgarishsiz qoladi. Masalan,

*kitob oʻqimoқ – kitobga qarash,
binoga qaramoқ – binoga kirish,
deputatlikka saylanmoқ – deputatlikka saylov.*

Rus tilida boshqaruv xarakteri baʻzan boshqaruvchi soʻzning morfologik tuzilishiga, jumladan, undagi u yoki bu old qoʻshimchani mavjudligiga bogʻliq boʻladi. Bu bogʻliqlik old qoʻshimcha va predloglar oʻrtasidagi muayyan munosabatga asoslanadi, bunda ayrim predloglar ham maʼno, ham shakl jihatidan old qoʻshimchalarga oʻxshab ketadi. (masalan, *добраться до станции* va h.k.) yoxud faqat maʼno tarafidan old qoʻshimchalar bilan aloqador boʻladi (*выйти из дома, подойти к столу* *переехать через реку* va h.k.).

Oʻzbek tilida old qoʻshimchalar bilan soʻz yasash hodisasi mavjud emas. Shu bois turli old qoʻshimchalar koʻmagida yasalgan ruscha soʻzlarning leksik maʼnosi oʻzbekchada tomonan boshqa-boshqa soʻzlar bilan ifodalanadi. Taqqoslang:

*ходить в комнате – хонада уирмоқ,
выходить из комнаты – хонадан чиқмоқ,
отходить от комнаты – хонадан нарикетмоқ,
входить в комнату – хонага кирмоқ.*

Rus tilining xarakterli xususiyati boʻlgan tobe soʻzshakliga bosh soʻz morfologik tuzilishining taʼsiri, shuningdek, ayrim old qoʻshimcha va predloglarning oʻzaro munosabati natijasida yuzaga kelgan birikmalar oʻzbek tilida boshqa oʻzakli soʻzlar bilan beriladi va tobe soʻz koʻmakchisiz qoʻllaniladi.

Daraja kategoriyasi feʼlning shaklini va leksik maʼnosini oʻzgartirib, boshqaruv aloqasiga taʼsir qiladigan asoslardan biridir. Feʼl darajalari subyekt va obyektning bajarilayotgan (yoki bajarilmayotgan) harakatga boʻlgan munosabatini bildirib, u boshqarilayotgan soʻzning shaklini ham oʻzgartirishi mumkin. Misol,

Дочь обняла мать – Она обнялась с матерью.

Меня восхищает его знание – Я восхищаюсь его знанием.

O'zbek tilida bir fe'lning o'zi daraja shakli o'zgarishi bilan turli xil kelishiklarni boshqara oladi, ba'zan fe'l darajalari shakllari belgisiz qo'llanilib, bosh darajaga mansub bo'lgan boshqaruv shakliga teng bo'lib qolishi ham mumkin. Masalan,

xat yozmoq, do'sti bilan xat yozishmoq.

o'quvchigaxat yozdirmoq.

Boshqaruv aloqasi tobe so'zning leksik ma'nosiga ham bog'liq bo'ladi. Turli leksik ma'nolarga ega otlar bir bosh so'z bilan aloqaga kirishib, birikma komponentlari orasida sintaktik munosabatni o'zgartirishi mumkin.

на кого?

Наступать на противника(obyekt munosabati),

куда?

Наступать на юг (holatmunosabati)

на что?

опоздать на поезд (obyektmunosabati)

на сколько?

опоздать на час(holatmunosabati)

So'nggi paytlarda o'zbek tilida otli so'z birikmalarining faollashishi kuzatilmoqda. Ularning tuzilishida "qilmoq", "etmoq", "bo'lmoq" fe'llari bilan yasalgan qo'shma fe'llar katta o'rin tutadi. Yordamchi fe'llarning tushirib qoldirilishi munosabati bilan otli so'z birikmalari hosil bo'ladi.

Va'daga vafo qilmoq – va'daga vafo

Do'stga yordam bermoq – do'stga yordam

O'zbek tilshunosligida "bo'yicha" ko'makchisi bilan hosil bo'lgan so'z birikmalarining ancha faollashgani qayd etilgan.

Hisoblash texnikasi bo'yicha muhandis.

Futbol bo'yicha O'zbekiston birinchiligi.

O'zbek tili bo'yicha olimpiada va. h.k.

Qayd etilgan so'z birikmalari o'zbek tilining leksik va morfologik materiallari asosida tilning o'ziga xos jihatlari inobatga olib tuzilgan.

Xullas, boshqaruv vositasida hosil bo'ladigan so'z birikmalari rus va o'zbek tillarida qator umumiylik kasb etishiga qaramasdan, bu aloqali qurilishlar har ikki tilda aniq nutqiy vaziyatlarda farqlanadi va ular har bir til uchun o'ziga xosdir.

Adabiyotlar:

1. Abdurahmonov D. So'zlarning boshqaruv munosabatlari // O'zbek tilida adabiyoti, 2011. –1-son. –66-b.
2. Abdullayev F. So'zlar o'zaro qanday bog'lanadi? –Toshkent, 1974.
3. Грамматика русского языка. Синтаксис. Т. II, ч. I. –М., 1980. –С.:11.

4. Komilova X. Gapda so‘zlarning bog‘lanishi. –Toshkent, 2001.
5. Скобликова Е.С.Согласование и управление в русском языке.– М.,2001.–С.: 26.
6. Виноградов В.В.Грамматика русского языка.Т.II,ч.II,ч.–М, 2005. –С.: 22.
7. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Qurbonova M.M., Raupova L.R., Abuzalova M.Q., Yo.,ldosheva D.N. Hozirgi o‘zbek tili <http://library.ziyonet.uz/ru/book/119110>

O‘zbek shevalarini lingvo-geografik xaritalashtirish

Atullo Rakhmatovich Akhmedov*

Sevara Mahmud qizi Po‘latova **

10.5281/zenodo.5685062

Annotatsiya. Ushbu maqola arealogiyaning asosiy maqsadi sanalgan xaritalashtirish masalasidadir. Bunda xaritalashtirishning turlari va dialektologik atlaslarning na‘munalari borasida fikr yuritilgan. Xaritalashtirishdagi turli usullar muayyan xaritaning maqsadiga, mazmuniga, foydalanish shakliga va boshqa sabablarga bog‘liq bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: *dialektologik atlaslar, diagramma, kartodiagramma, kartografiya, dialektografiya, anketa*

Biror til yoki dialektga xos xarakterli lingvistik xususiyatlarning tarqalish chegarasini aks ettirgan albom yoki kitob shaklida nashr qilingan kartalar yig‘indisi dialektologik atlas sanaladi. Dialektologik atlaslar biror xalq tili va xalq tarixini, uning millat bo‘lib shakllanishini o‘rganishda alohida ahamiyatga ega bo‘ladi.

Xaritalar bir necha xil ko‘rinishda bo‘lishi mumkin [1;45]. Masalan, harakatdagi hodisalarni ifodalovchi xaritalar. Bunda harakatdagi hodisalar alohida tasvirlash usuli sifatida xaritada ko‘rsatiladi. Masalan, tojik tilining kengayib borish harakati, singormanizmning yo‘qolib borish tezligi. Harakatdagi belgilar joylashish xarakteri bo‘yicha turlicha bo‘lishi mumkin: nuqtali, chiziqli, maydonli, yoyilgan, uzluksiz. Xaritani maqsadiga va xaritaga olinayotgan hodisaning xususiyatiga mos holda harakatdagi belgilar yordamida harakatlanayotgan hodisaning yo‘lini, harakat usulini, yo‘nalishini va ko‘chib yurish tezligini, sifatini, quvvatini ko‘rsatishi mumkin. Grafik vositalar sifatida sterelkalardan, shuningdek har xil rangdagi, sur‘atdagi va kenglikdagi chiziqlardan foydalaniladi.

Xaritada biror hodisani taqsimlanishini ma‘lum hududiy bo‘linish birligi ichida joylashtiriladigan va hodisani har xil hududiy birlik chegarasida jamlangan (yakuniy, umumiy) qiymatini (miqdorini) ayrim paytda esa tarkibini yoki dinamikasini ifodalaydigan diagrammalar yordamida tasvirlash usuliga kartodiagramma deyiladi.

Kartodiagrammalarni ko‘rgazmali taqqoslash uchun, masalan hodisalarning tarqalish darajasini ko‘rsatishda foydalaniladi. Kartografiyada chiziqli diagrammalar – ustunchalar, tasmachalar va shu kabi vositalardan foydalanish

* Buxoro davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi a.r.ahmedov@buxdu.uz

** Buxoro davlat universiteti o‘zbek tilshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi E-mail: sevaramahmudqizi@gmail.ru

МУНДАРИЖА

Rasmiy ochilish. Tabriklar		
<i>Hamidov O.H.</i>	<i>Rasmiy ochilish</i>	6
<i>Inoyatov A.Sh.</i>	<i>Tibbiyot va til mushtarakligi</i>	8
<i>Daminov M.I.</i>	<i>Til va madaniyat</i>	9
<i>Qahhorov O.S.</i>	<i>Davlat tili - millatning tirik nafasi</i>	10
<i>Xuseynova A.A.</i>	<i>Soha lingvistikasini rivojlantirish – davr talabi</i>	11
<i>Aslonova E.S.</i>	<i>Государственный язык – неотъемлемая часть духовной национальной культуры государства</i>	12
Yalpi majlis ma’ruzalari		
<i>Mengliyev B.R.</i>	<i>Tilshunoslik samara bersin.</i>	15
<i>Abuzalova M.Q.</i>	<i>Lingvistika va tibbiyot hamkorligi ijtimoiy zarurat sifatida</i>	17
<i>Чудакова В.П.</i>	<i>Психология пациента и этика врача</i>	22
<i>Ixtiyarova G.A.</i>	<i>Ginekologik kasallikni ifodalovchi tibbiy terminlar talqini</i>	25
<i>Мўратбек В.Қ.</i>	<i>Professor Q.Jўbanov уеңбектериндеги сөзтаңым неғиздері (Q.Jўbanov сөзтаңымындағ ы лексикология мәселелері)</i>	27
<i>Adilova S.A.</i>	<i>Tilshunoslik va tibbiyot integratsiyasi (AQSHdagi ayrim universitetlar misolida)</i>	36
<i>Rajabov D.Z.</i>	<i>O'zbek tilini tadqiq etishda yangicha yondashuvlar</i>	40
1-sho'ba. Tilshunoslikda til, shaxs, jamiyat munosabatlari tadqiqi muammolari va innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish istiqbollari		
<i>Ahmedov B.Y.</i>	<i>Rus va o'zbek tillarida so'zlarning o'zaro tobe bog'lanishi: boshqaruv kategoriyasi</i>	42
<i>Akhmedov A.R. Po'latova S.M.</i>	<i>O'zbek shevalarini lingvo-geografik xaritalashtirish</i>	46
<i>Adizova N.I.</i>	<i>Leksik birliklarning milliy o'zlik ruhini ifodalashdagi roli (Erkin Vohidov dostonlari asosida)</i>	50
<i>Elova D.Q.</i>	<i>O'zbek tili milliy korpusi uchun so'zlashuv uslubiga xos so'zlarni teglash masalasig oid</i>	55
<i>Fayazova D.S.</i>	<i>Methodological approach in teaching process</i>	61
<i>Fayazova D.S. Shirinboyeva B.M.</i>	<i>Empowering languageskills through modern methods</i>	65
<i>Jo'rayeva D.R. Qo'shayeva N.E.</i>	<i>O'quvchilar va aholi imloviy savodxonligini rivojlantirishning dolzarb masalalari</i>	68
<i>Kurbonov A.M.</i>	<i>Tasks of effective use of the uzbek language</i>	71
<i>Mengliyev B.R. Hamroyeva Sh.M. Elova D.Q.</i>	<i>Qirg'iz va yoqut tili avtomatik morfoligik tahlil vositalari tajribasidan</i>	75
<i>Muxtorov E.M.</i>	<i>Vrach kasbiy mahorati tuzilmasida kommunikativ kompetentlikning o'rni</i>	79
<i>Мўратбек Б.Қ. Саламат Э.С.</i>	<i>Этнолингвистика – этностық болмысты ұлттық тіл арқылы таңым білу(Аймақтық лексика неғизінде). Ethnolinguistics- knowledge of ethnic identity through the national language (based on regional vocabulary).</i>	84
<i>Orifjonova F. Orifjonova M.</i>	<i>Critically discussing student teachers' ideas</i>	88

<i>Ortiqova G. H.</i>	<i>Harakat tarzi shakllari va nutq</i>	93
<i>Saduaqas N.A.</i> <i>Ibragimov T.A.</i>	<i>Qazaq tilindegi dybyys saykestigi turaly</i>	97
<i>Sayfullayeva R.R.</i> <i>Abuzalova M.Q.</i>	<i>Til – millat ma’naviyati va madaniyati takomilining bosh masalasi</i>	102
<i>Tosheva D.A.</i>	<i>The use of examples of folklore in the description of the person</i>	104
<i>To’yeva Z.N.</i>	<i>Bayon –o’quvchining yozma nutqini tartibga solish vositasi</i>	111
<i>Salomova M.Z.</i>	<i>The role of teaching speaking through technology</i>	116
<i>Shoimqulova M.Sh.</i>	<i>The integration of technology into language teaching</i>	121
<i>Sharipova F. N.</i>	<i>Integrating technology in teaching listening skills</i>	125
2-sho’ba. O’zbek tili tibbiyot leksikografiyasi va terminologiyasini rivojlantirish ijtimoiy zaruriyat sifatida		
<i>Nazarova S. A.</i>	<i>So’z birikmasi – tibbiy atamalar “bunyodkori”</i>	131
<i>Nazarova D.G.</i>	<i>Lexicographic problems of the uzbek language</i>	136
<i>Rajabov D.Z.</i>	<i>Tibbiy birliklarning elektron lug’atlari xususida</i>	139
<i>Sobirova D.R.</i>	<i>Qisqalik – samarali tibbiy reklama yaratishning muhim omili</i>	141
<i>Toirov G.I.</i>	<i>Shifokor nutqining lingvistik xususiyatlari</i>	146
<i>To’rayeva Sh.</i>	<i>So’z birikmasi tibbiy terminlar tizimida</i>	150
<i>Xamidova G.Y.</i>	<i>Особенности преподавания медицинской терминологии на уроках русского языка как иностранного</i>	153
<i>Xojiyeva M. Y.</i>	<i>Shaxsni tavsiflovchi so’z birikmalarining tibbiyotda qo’llanilishi</i>	157
<i>Yokubova Sh. Y.</i>	<i>Tibbiy matnlarda obyektli birikmalarning voqelanishi</i>	161
<i>Yuldasheva D.N.</i> <i>Chullieva G.T.</i>	<i>Тонина и тон звука как медицинский эфемизм</i>	164
<i>Navro’zova M.G’.</i>	<i>Tibbiy birliklar tadqiqi</i>	172
3-sho’ba. Tibbiyot ta’limida lingvokulturologiya va psixolingvistikaning ahamiyati hamda dolzarbligi		
<i>Ahmadova U.Sh.</i> <i>Bozorova G.Z.</i> <i>Mirjonov N.N.</i>	<i>Tibbiyot sohasida perifrazarlar</i>	174
<i>Абдуллина А.Б.</i>	<i>Мұқағали Мақатаев әңгімелеріндегі психологизм</i> <i>Psychologism in the stories of mukagali Makatayev</i>	179
<i>Adizova Nigora</i> <i>Adizova Nodira</i>	<i>Alisher Navoiyning tibbiy qarashlari</i>	182
<i>Gafurova N.T.</i> <i>Hikmatov N.I.</i>	<i>Значение языка в развитии высшего образования</i>	185
<i>G’aybullayeva N.I.</i>	<i>Tibbiy lingvistik birliklar platformasining amaliy ahamiyati</i>	190
<i>Hayitov Sh.A.</i>	<i>Alisher Navoiy tib ilmi va tabiqlar haqida</i>	195
<i>Haydarova N.A.</i>	<i>The importance of metaphors usage in medical discourse</i>	200
<i>Jumayeva M.</i>	<i>O’zbek xalq maqollarida tibbiy birliklarning qo’llanilishi</i>	204
<i>Kobilova F.T.</i>	<i>The problems of research on methods of foreign filology teaching with innovative approach</i>	207
<i>Raximov M. M.</i>	<i>Linguotherapy as the method of treatment</i>	211
<i>Xalikova M.X.</i> <i>Teshayeva M.Sh.</i>	<i>Shoshiyning tibbiyot ilmiga bag’ishlangan “qonuni bositiy” asarida mavjud ayrim tibbiy atamalarning lingvistik tahlili</i>	214
<i>Niyozova M.F.</i>	<i>Davriy nashrlarda tibbiyotga oid tasviriy vositalarning</i>	218

	<i>qo'llanilishi</i>	
4-sho'ba. Tibbiy birliklarning lingvopoetik tadqiqi		
<i>Yusupova D.Y.</i>	<i>Tilshunoslikda evfemizm hodisasi talqini (H.Xudoyberdiyeva she'rlari asosida)</i>	222
<i>Қалиев Е.М.</i>	<i>«Ант» драмалық дастанының тарихи және фольклорлық негізі Historical and folklore basis of the dramatic saga "The Oath"</i>	228
<i>Yuldasheva M.M.</i>	<i>Tibbiy pedagogik yo'nalish talabalarida milliy an'analar asosida bag'rikenglikni rivojlantirish</i>	232
5-sho'ba. Amaliy filologiyani rivojlantirish - davr talabi		
<i>Ashurbayeva R.Q.</i>	<i>Yosh avlodda tibbiy madaniyatni rivojlantirishda ona tili fanining ahamiyati</i>	237
<i>Istamova S. I.</i>	<i>Taqlid so'zlarning tibbiyotda qo'llanilishi</i>	241
<i>Qobilova A.B.</i>	<i>O'zbek va ingliz tili tibbiy perifrazalarining kognitiv-morfologik xususiyatlari</i>	245
<i>Toshtemirova S.</i>	<i>Tibbiyot lingvistikasi: vujudga kelishi, dolzarbligi, maqsad va vazifalari</i>	248